

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № BD-60230100 -1.06.

2024-yil "2" *iyul*

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari)

Mazkur fan dasturini tayyorlashda xalqaro tan olingan reytinglarda **Digital Philology (Bachelor of Arts)** va **BA in Linguistics&Computer Science** sohalari bo'yicha birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Technical University of Darmstadt (241-o'rin)** hamda **Boston University (108-o'rin)** ta'lim dasturlaridan foydalanildi.

Web havola: https://www.linglit.tu-darmstadt.de/studiumlinglit/studiengaenge/digital_philology_bachelor_of_arts/index.en.jsp
<https://www.bu.edu/academics/cas/programs/linguistics/ba-in-linguistics-computer-science/>

Fan/modul kodi TAT1204		O'quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek / rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Axborot texnologiyalari		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni <i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talabalarga ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha nazariy bilimlar berish, kasbiy faoliyati bo'yicha qo'yilgan masalalarni yechishda zarur dasturiy vositalarni to'g'ri tanlash va olingan bilimlar asosida qo'yilgan masalalarni yecha olish, zamonaviy axborot texnologiyalari dasturiy vositalaridan mustaqil foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish. <i>Fanning vazifasi</i> – talabalarni o'qitishning zamonaviy axborot – kommunikatsiya vositalari va dasturlari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining imkoniyatlari mohiyatining tanishtirish va ularni ta'lim jarayonida amaliy qo'llay olish, shuningdek fan yutuqlari va yangilanishlari bilan tanishtirib borish, olingan bilimlardan foydalanib ta'lim resurslarini yaratishni o'rgatish. <i>Fanni o'lashtirish natijasida talaba bilishi lozim:</i> 1. Fan va zamonaviy texnologiyalarning yutuqlaridan xabardor bo'lishi lozim. Matnli ma'lumotlar bilan ishlash uchun dasturiy mahsulotlarning asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Axborotni olish, qayta ishlash va boshqarish tamoyillari. 2. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish. 3. Matn va grafik muharrirlarda, ma'lumotlar bazalarida, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlarida, Internet xizmatlarida ishlash ko'nikmalari. 4. Amaliy dasturlari va ma'lumotlar bazalari bilan malakali foydalanuvchi sifatida ishlash. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni va imkoniyatlari. Tilshunoslikda axborot texnologiyalarining o'rni va imkoniyatlari. Tilshunoslik va tarjima jarayonida qo'llaniladigan axborot texnologiyalari, texnik				

va dasturiy vositalardan foydalanish. Raqamli gumanitar fanlar (digital humanities). Tilshunosning raqamli kompetentligi.

2-mavzu. Matn muharrirlaridan foydalanish. Matn muharrirlari haqida tushuncha va ularning turlari. Matn bilan ishlash texnologiyasi. Turli shakldagi hujjatlarga qo'yilgan talablar. Elektron shakldagi hujjat yaratishning zamonaviy dasturiy vositalari va raqamli hujjat yaratishning onlayn xizmatlari.

3-mavzu. Elektron jadval yaratishning zamonaviy vositalari. Elektron jadval tushunchasi va ularning turlari. Elektron jadvalga qo'yilgan talablar. Elektron jadvallarning matnli funksiyalaridan foydalanish. Elektron jadvallarda matnli ma'lumotlarning vizualizatsiyasi. Elektron jadval yaratishning zamonaviy dasturiy vositalari va elektron jadval yaratishning onlayn xizmatlari.

4-mavzu. Multimedia materiallarini yaratish dasturlari. Taqdimot tushunchasi va ularning turlari. Multimediyali taqdimotlar va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklari. O'quv taqdimotiga qo'yilgan talablar. Taqdimot yaratishning zamonaviy dasturiy vositalari va taqdimot yaratishning onlayn xizmatlar.

5-mavzu. Ommaviy ochiq onlayn kurslar. Masofaviy ta'lim. O'OK tushunchasi. Ommaviy ochiq onlayn kurslarning tarixi, bugungi kundagi holati, tarkibiy tuzilmasi, ishlash tamoyillari. O'OKning yutuq va kamchiliklari. Masofaviy ta'lim kurslarining tavsifi.

6-mavzu. Mashina tarjimasi. Elektron lug'atlar. Tarjimada qidiruv tizimlaridan foydalanish. Mashina tarjimasi tizimlari: ulardan foydalanish samaradorligi. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari va lingvistik vositalar. Ikki tilli elektron lug'atlar. Neyron tarmoqqa asoslangan avtomatik tarjima tizimlari (NMT). Lug'atlar va izohli lug'atlarni avtomatik ravishda tuzish.

7-mavzu. Matnni qayta ishlash va tahlil qilish. Sun'iy intellekt texnologiyasi. Promptlar bilan ishlash. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasi (NLP). Katta til modellari (LLM). Elektron kutubxonalar va ma'lumotlar bazasi (JSTOR, Project MUSE). Korpus ma'lumotlar bazasi (Corpus of Contemporary American English, British National Corpus, Sider Fusion).

8-mavzu. Bulutli texnologiyalar texnologiyalarlardan foydalanish. Google xizmatlaridan foydalanish. Bulutli texnologiyalar tushunchalari. Bulutli texnologiyalarning asosiy turlari. Bulutli texnologiyalar xavfsizligini ta'minlash. Tarjima jarayonida so'z "bulut"laridan foydalanish. Google xizmatlari. StudyStack onlayn xizmati.

9-mavzu. Veb texnologiya va veb sayt tushunchasi. HTML tili. Web texnologiyalarining rivojlanishi: Web1.0, Web2.0, Web3.0 – texnologiyalar. Internetda ishlashning etik va axloqiy qoidalari. Veb saytlarning tarkibiy tuzilmasi. Sodda veb saytlar yaratish. HTML tili teglari.

10-mavzu. Fayl formatlari. Fayllarni bir formatdan boshqasiga o'tkazish. Fayllarni konvertatsiyalash.

Fayl tushunchasi. Fayl formatlarini o'zgartirish. Fayllarni konvertatsiya qilish dasturlari. Onlayn konvertatsiya platformalari. PDF formatdagi fayllar ustida turli amallarni bajarish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ms Word dasturi bilan murakkab leksik amallarni bajarish. Tezaurus, ssilka, snoska, ko'ppog'onali ro'yxatlar bilan ishlash, avtomatik mundarija yaratish.
 2. Ms Word dasturi. Jadvallar bilan ishlash. Murakkab tipdagi jadvallar yaratish.
 3. Ms Word dasturi. Hujjat dizayni. Titul sahifasi uchun dizayn yaratish. Hujjatga taqriz yozish.
 4. Ms Excelda ma'lumotlarni kiritish va tahrirlash. Elektron jadvallarda grafik o'ektlardan foydalanish.
 5. Ms Excelda ma'lumotlarni filtrlash. Formulalar bilan ishlash.
 6. Ms Excelda matnli funksiyalar bilan ishlash.
 7. Taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari. Interaktiv taqdimotlar tayyorlash.
 8. Multimediali taqdimotlar tayyorlash.
 9. Onlayn taqdimotlar yaratish (Canva, Genially).
 10. Elektron lug'atlar. ABBY lingvo. Elektron lug'atlar bilan ishlash texnologiyasi.
 11. HTML tili. Matn bilan ishlash teglari. Harakatlanuvchi qatorlar.
 12. HTML tili. Ro'yxatlar bilan ishlash texnologiyasi. Markerli va tartiblangan ro'yxat.
 13. HTML tili. Tasvirlar bilan ishlash.
 14. HTML tili. Jadvallar bilan ishlash teglari. Ustun va satrlarni qo'shish.
 15. HTML tili. Giperssilklar yaratish.
 16. Google xizmatlari bilan ishlash. Google docs, elektron jadval, taqdimotlar yaratish.
 17. Google xizmatlari bilan ishlash. Google docs, elektron jadval, taqdimotlar yaratish.
 18. Google xizmatlari bilan ishlash. Google Forms yordamida so'rovnoma va testlar yaratish.
 19. Google xizmatlari bilan ishlash. Google Classroomda ishlash texnologiyasi.
 20. Fayllar formatini konvertatsiya qilish.
- IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.** Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan slaydlar hamda loyiha ishlari tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ms Word dasturida tezauruslar bilan ishlash. Рецензирование bo'limi imkoniyatlari.
2. Excel dasturida ma'lumotlarni shartli formatlash. Yig'ma jadval (сводная таблица) hosil qilish va uning ustida amallar bajarish.
3. Ms Power Pointda o'rgatuvchi interaktiv taqdimotlar yaratish.
4. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari (CAT dasturlar)
5. Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish.
6. Google Docsda hujjatni birgalikda tahrirlash.
7. Google Sheetsda jadvallar yaratish.
8. Google Slidesda onlayn prezentatsiyalar yaratish
9. Google Sitesda veb sahifalar yaratish.
10. Google Formsda onlayn so'rovnomalar hamda testlar yaratish.
11. Google Classroomda kurs yaratish va unga talabalarni ulash.
12. Konvertatsiya. Fayllarni bir formatdan boshqa formatga o'tkazish. Onlayn konvertatsiya dasturlaridan foydalanish.
13. LMS turlari va ularning tasnifi.
14. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (OOC)ning imkoniyatlari bilan tanishish.
15. Google Meet platformasida konferensiya yaratish va unga foydalanuvchilarni ulash va boshqarish.

3 V. Fan o'qitilishining natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- axborot texnologiyalarini jamiyat va ta'limdagi o'zmi, ahamiyati haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- zamonaviy o'quv texnik vositalar, ta'limga tarjima faoliyatiga oid dasturiy vositalar, ta'limda va tarjima faoliyatida qo'llaniladigan VEB-texnologiyalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- zamonaviy raqamli texnologiyalarni tarjimonlik faoliyatida qo'llash, multimediali taqdimotlar yaratish, elektron o'quv resurslarini yaratish, interfaol tizimlar bilan ishlash, masofaviy kurslar yaratish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar va videoma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar
- tadqiqot usuli;
- amaliy mashg'ulotlar;
- individual loyihalar;
- o'quv kurs prohekti bo'yicha guruhlarda ishlash;

5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. J.J. Jo'raqulov. Filologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar: o'quv qo'llanma. Buxoro: Durdona nashriyoti, 2023 y. -216 b. 2. Monica Berti. Digital Classical Philology // Leipzig University, Germany // De Gruyter Saur, 2019. P-349. 3. G.S. Turdiyeva., O.I. Jalolov., G.Yo. Bo'ronova. Ta'limda axborot texnologiyalari: darslik. Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022 y. -304 b. 4. Г.И. Атаева. Информационные технологии в сфере обучения иностранному языку. Учебник/-Бухараю, Издательство Камолот, 2023 г. 236 с. 5. Joan Lambert, Curtis Frye Microsoft Word 2016 Step-by-Step Guide. Copyright © 2015. PUBLISHED BY Microsoft Press A division of Microsoft Corporation Qo'shimcha adabiyotlar 1. Андреева, Е.Д. Теория перевода. Технология перевода: учебное пособие. - Оренбургский гос. ун-т. - Оренбург: ОГУ, 2017 – 152 с. 2. Моисеева, И. Ю. Квантитативная лингвистика и новые информационные технологии: учебное пособие / И. Ю. Моисеева. – Оренбург: Оренбургский государственный университет, ЭБС АСВ, 2017. – 103 с. 3. Стригунов, В. В. Введение в компьютерные сети: учеб. пособие – Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2016 – 103 с. 4. Облачные технологии в образовании: Сервисы Google. Монография / Г.И. Атаева, Г.Х. Тураева. / Бухара. 2022 – 120 стр. Axborot manbalari 1. https://begemot.ai/projects/484630-internet-resursy-dlia-filologov-perevodcikov 2. http://school-collection.edu.ru/ 3. https://www.wordsmyth.net/ (Dictionaries and vocabulary tools for English language learners Wordsmyth) 4. https://www.multitran.com/ (Multitran dictionary) 5. https://www.acronymfinder.com/ (Словарь англоязычных сокращений)

	6. https://elib.spbstu.ru/dl/2/s16-159.pdf/view (Тутыгин В.С. Информатика. MicrosoftOffice2016.: Учеб.пособие.СПб.:Изд-во Политехн. ун-та, 2016. 216с). 7. https://www.iedtech.ru/mooc/
7.	Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil “<u>2</u>” <u>07</u> dagi <u>11</u> - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: G.H.To'rayeva - “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar” kafedrasi katta o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: F.R. Murodova – BMTI “Axborot kommunikatsion texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD) T.R. Shafiyev – “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar” kafedrasi mudiri, dotsent, t.f.f.d.(PhD). 